



## Analysis of the Constitutional Complaint Mechanism Based on International and National Experience

Noila NURMAMATOVA<sup>1</sup>

Tashkent State University of Law

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

**Keywords:**

constitutional complaint,  
German experience,  
Austrian model,  
procedural time limits,  
individual necessity,  
Venice Commission.

### ABSTRACT

This article highlights the significance of the constitutional complaint institution and its role in resolving legal issues for citizens and organizations. Additionally, it analyzes the legal basis, criteria, and procedural requirements for accepting constitutional complaints based on the experiences of Uzbekistan, Germany, and Austria. The article emphasizes that in the German model, the principle of "individualized necessity" is of primary importance, while the Austrian experience requires applicants to provide evidence proving the legal impact of their complaint. Furthermore, the article compares the establishment of procedural deadlines and their role in ensuring the effectiveness of the judicial system with the principles of the Venice Commission. Through a comparative approach, certain shortcomings in Uzbekistan's experience are identified, and proposals for improving procedural deadlines are presented.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp1-6>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Konstitutsiyaviy shikoyat institutining xalqaro va milliy tajriba asosida tahlili

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

konstitutsiyaviy shikoyat,  
Germaniya tajribasi,  
Avstriya modeli,  
protsessual muddatlar,  
individuallashtirilgan  
zaruriyat,  
Venetsiya komissiyasi.

Mazkur maqolada konstitutsiyaviy shikoyat institutining ahamiyati, uning fuqarolar va tashkilotlar uchun huquqiy muammolarni hal qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston, Germaniya va Avstriya tajribalari asosida konstitutsiyaviy shikoyatlarni qabul qilishning huquqiy asoslari, mezonlari va protsessual talablari tahlil qilingan. Germaniya modelida "individuallashtirilgan zaruriyat" tamoyili asosiy

<sup>1</sup> PhD Student, Tashkent State University of Law. E-mail: [nurmamatovanoila@gmail.com](mailto:nurmamatovanoila@gmail.com)

ahamiyatga ega ekanligi, Avstriya tajribasida esa murojaatchi tomonidan qonuniy ta'sirni dalillar bilan isbotlash talab etilishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada protsessual muddatlarning belgilanishi va ularning sud tizimidagi samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni Venetsiya komissiyasi tamoyillari bilan solishtirilgan. O'zbekiston tajribasida mavjud bo'lgan ayrim kamchiliklar qiyosiy yondashuv orqali aniqlanib, protsessual muddatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

## **Конституционная жалоба: анализ на основе международного и национального опыта**

### **АННОТАЦИЯ**

#### **Ключевые слова:**

конституционная жалоба, опыт Германии, австрийская модель, процессуальные сроки, индивидуальная необходимость, Венецианская комиссия.

В данной статье рассматривается значимость института конституционной жалобы, его роль в решении правовых проблем граждан и организаций. Также на основе опыта Узбекистана, Германии и Австрии проанализированы правовые основы, критерии и процессуальные требования к принятию конституционных жалоб. В модели Германии основное внимание уделяется принципу «индивидуальной необходимости», тогда как в австрийской практике требуется, чтобы заявитель предоставил доказательства правового воздействия. Кроме того, в статье рассматривается установление процессуальных сроков и их роль в обеспечении эффективности судебной системы на основе принципов Венецианской комиссии. Путем сравнительного подхода выявлены определенные недостатки в практике Узбекистана, а также предложены рекомендации по совершенствованию процессуальных сроков.

### **KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Konstitutsiyaviy shikoyat instituti fuqarolar va yuridik shaxslar hamda davlat hokimiyati o'rtasida huquqiy chegaralarni belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Shikoyatni qabul qilishning huquqiy asoslari va jarayonning me'yoriy talablari konstitutsiyaviy sudning samarali faoliyat yuritishida va aholi o'rtasida sudga nisbatan ishonch ta'minlanishida muhim o'rin tutadi.

A. Saidov konstitutsiyaviy shikoyat institutini inson huquqlarini himoya qilishning samarali vositasi sifatida ko'rib, uning O'zbekiston huquqiy tizimiga integratsiyalashuvi mamlakatda huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etadi. U shuningdek, bu institutning joriy etilishi fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga ham hissa qo'shishini ta'kidlaydi [1]. I. Bekov esa konstitutsiyaviy shikoyat institutining joriy etilishi O'zbekistonda sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilishini va bu orqali fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirishga imkon yaratishini, bu institutning samarali faoliyat yuritishi uchun sudyalarning malakasini oshirish va ularni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish zarurligini qayd etadi [2].

Konstitutsiyaviy sud tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish bosqichlari bir qancha jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Jumladan, konstitutsiyaviy shikoyatni ko'rib chiqishga asos bo'lgan hujjat hamda shikoyat qilish huquqiga kimlar egaligi, shikoyatni qabul qilish mezonlari va dastlabki tarzda tekshiruv, ishni sud majlisiga tayyorlash, protsessual muddatlar, murojaatlarning rad etilish asoslari kabi bosqichlar mavjud.

Mazkur boshqichlarning barchasi konstitutsiyaviy shikoyatning sudda ko'rib chiqilishi va mazmunan hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **TADQIQOTNING MAQSADI**

O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy shikoyat institutining rivojlanishi va samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashdir. Tadqiqotda Germaniya va Avstriya kabi davlatlarning tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy shikoyat institutini rivojlantirish yuzasidan takliflar taqdim etiladi.

### **METODOLOGIYA**

Mazkur maqolani yozishda taqqoslash (komparativ), tahlil (analiz), huquqiy-ekspretiza va tarixiy yondashuv metodlari qo'llanildi. Komparativ metod orqali O'zbekiston, Germaniya va Avstriya tajribalari solishtirilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Tahliliy metod konstitutsiyaviy shikoyat institutining huquqiy asoslarini chuqur o'rganish va protsessual talablarga oid me'yorlarni aniqlashda qo'llanildi. Huquqiy-ekspretiza metodi shikoyat institutining samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishlatildi. Tarixiy metod esa konstitutsiyaviy shikoyat institutining evolyutsiyasini o'rganish va xalqaro huquqiy tajribalarni tahlil qilishda asos bo'ldi.

### **TAHLIL**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi faoliyati "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunlar fuqarolar va tashkilotlarga Konstitutsiyaga zid deb hisoblagan hujjat yoki harakatlar ustidan shikoyat qilish imkoniyatini beradi. Shikoyat faqatgina konstitutsiyada belgilangan normalar buzilishi yuzasidan berilishi mumkin, bu esa shikoyat qilinishiga sabab bo'lgan huquqiy normaning aniqligini ta'minlaydi.

Germaniya va Avstriya tajribalariga nazar tashlasak, shikoyatlarni qabul qilishning asoslari qat'iy me'yorlar bilan tartibga solingan. Germaniya Federativ Respublikasida shaxslar va tashkilotlar Federal Konstitutsiyaviy Sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lib, ular o'zlarining konstitutsiyada belgilangan asosiy huquqlari buzilganligini isbotlashlari lozim [3]. Germaniya tajribasida "individuallashtirilgan zaruriyat" tamoyili asosiy rol o'ynaydi, ya'ni shikoyat qiluvchi shaxs o'z huquqlarining bevosita buzilganini isbotlashi kerak. Avstriyada esa konstitutsiyaviy shikoyat ko'rib chiqilishi uchun u qonunchilik yoki ijro etuvchi hokimiyatning harakatlari natijasida yuzaga kelgan zarar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Masalan, agar biror qonun yoki qaror shaxsning iqtisodiy faoliyatini cheklasa yoki uning mulkiy huquqlariga putur yetkazsa, murojaat qiluvchi ushbu ta'sirni dalillar bilan asoslashi kerak [4]. Bu tizimning asosiy maqsadi ortiqcha shikoyatlarni kamaytirish va faqat haqiqiy huquqiy buzilishlarni ko'rib chiqishga yo'naltirilgan samarali sud jarayonini ta'minlashdir. Avstriya tajribasi, Germaniya tajribasiga o'xshash tarzda, konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyatlarini aniq chegaralar bilan tartibga soladi.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy shikoyatni fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblagan taqdirda berishlari mumkin. Albatta, bu jarayoni to'g'ridan to'g'ri amalga oshirishning iloji yo'q. Qonunchilik normalariga ko'ra, konstitutsiyaviy shikoyat berish uchun arizachi barcha sud bosqichlarini bosib o'tishi lozim.

Germaniya modelida har qanday fuqaro yoki tashkilot, agar ularning asosiy huquqlari buzilgan bo'lsa, Federal Konstitutsiyaviy Sudga murojaat qilishi mumkin [5]. Shu bilan birga, Avstriyada murojaat qiluvchilar, odatda, qonunchilikning o'z faoliyatiga yoki huquqlariga bevosita ta'sir qilganligini ko'rsatishlari shart [6].

O'zbekiston tajribasida ushbu qoidalarning tatbiqi Germaniya va Avstriya modellari bilan qiyoslaganda, ba'zi noaniqliklarni ko'rsatadi. Masalan, Germaniya tajribasida shaxsiy manfaatlar va zaruriyat tamoyillariga katta ahamiyat beriladi, bu esa shikoyatlarning ortiqcha yuklanishiga yo'l qo'ymaslikda muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda esa fuqaro tomonidan shikoyatning Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqilishi jarayoniga yetib borish mashaqqatli va uzoq vaqt saraflanadigan jarayon hisoblanadi.

Keyingi tahlil qilinishi lozim bo'lgan masala shikoyatning Konstitutsiyaviy sud tomonidan belgilangan talablarga mosligini tekshirish bo'lib, bu jarayon O'zbekiston qonunchiligida shikoyatlarning dastlabki tekshiruvi sifatida ko'zda tutiladi.

Germaniya va Avstriya tajribasida konstitutsiyaviy shikoyatlarni qabul qilish jarayoni aniq va tizimli mezonlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, bu davlatlarda sudga murojaat qiluvchi shaxs yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan dalillar va huquqiy asoslar qattiq tekshiriladi. Germaniya modelida, Federal Konstitutsiyaviy Sud shikoyatni ko'rib chiqishda quyidagi omillarni o'rganadi:

– asosiy huquqlarning buzilishi: shikoyat qiluvchi o'zining konstitutsiyada belgilangan asosiy huquqlari buzilganligini ko'rsatib berishi lozim. Misol uchun, biror qonun yoki qaror insonning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashishni keltirib chiqarsa, murojaatchi ushbu qonunning konstitutsiyaga zidligini asoslash uchun dalillar keltirishi kerak.

– shikoyatni “individuallashtirish” tamoyili: u tamoyilga ko'ra, shikoyatni qabul qilish uchun murojaatchi bevosita o'ziga nisbatan zarar yetganligini ko'rsatishi shart. Masalan, umumiy qonunchilikka nisbatan shikoyat faqatgina shu qonun bevosita fuqaroning huquqlarini buzgan holatda ko'rib chiqiladi. Sud shikoyatni qabul qilishdan avval, zarar yetganligini va bu zarar konstitutsiyaviy ahamiyatga ega ekanligini aniqlaydi [7].

Avstriya tajribasida esa, Konstitutsiyaviy Sudga murojaat qilish jarayonida murojaatchining qonuniy manfaatlarini buzilganligini ko'rsatish talab qilinadi. Misol uchun:

– qonun yoki qarorning ta'sir doirasi: murojaatchi ushbu qonun yoki qarorning bevosita uning huquqlariga qanday ta'sir qilganini aniqlab, asoslashi lozim. Avstriya Konstitutsiyaviy Sudi qonuniy me'yorning amaldagi zararli oqibatlarini ko'rsatib bergan holdagina shikoyatni qabul qiladi [8].

– shikoyatni qabul qilish mezonlari: shikoyatga huquqiy va daliliy asoslar taqdim etilishi shart. Misol uchun, shikoyatchi taqdim qilgan dalillar o'ziga zarar yetganini aniq isbotlagan bo'lsa, bu sud tomonidan dastlabki qabul qilish bosqichida tasdiqlanadi. Shu bilan birga, agar qonun amaliyotda hali qo'llanmagan bo'lsa yoki ta'siri abstrakt ravishda buzilish sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, shikoyat odatda rad etiladi. Ya'ni, shikoyatda amaliy ta'sir va shaxsiy manfaatlar yo'q bo'lsa va shikoyat nazariy jihatdan qonun yoki normaning xatoligini isbotlashga qaratilgan bo'lsa, ushbu shikoyat rad etiladi.

Bu jarayonlarning mohiyati shundaki, Germaniya va Avstriya sudlari konstitutsiyaviy shikoyatlarni qabul qilishda yuqori sifatli huquqiy asosga ega bo'lgan murojaatlarni qabul qilishga intiladilar. Bunda asosiy maqsad ortiqcha yukni kamaytirish va faqat konstitutsiyaviy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan shikoyatlarni qabul qilishdir.

Konstitutsiyaviy shikoyatlarni kiritish uchun protsessual muddatlarning belgilanishi sud tizimining samaradorligini oshirish va shikoyatlarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun zarurdir. Ushbu muddatlar nafaqat fuqarolar uchun qulaylik yaratadi, balki sud tizimining ortiqcha yuklanishining oldini oladi. Venetsiya komissiyasi konstitutsiyaviy nazorat institutini takomillashtirishda protsessual muddatlarni belgilashni muhim omil sifatida ta'kidlagan.

Venetsiya komissiyasi protsessual muddatlar bo'yicha quyidagi tamoyillarni tavsiya etadi:

– muddatning maqbulligi: shikoyatni berish uchun belgilangan muddat shikoyatchiga yetarli vaqt berishi kerak. Shu bilan birga, sud tizimining tezkor ishlashini ta'minlash uchun muddat ortiqcha cho'zilmasligi lozim;

– muddatning boshlanish nuqtasi: protsessual muddat shikoyatchi o'z huquqlari buzilganini bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan hisoblanishi kerak. Bu yondashuv shikoyatlarni o'z vaqtida topshirish va sud jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

– maxsus sharoitlar: ba'zi holatlarda (masalan, yangi dalillar paydo bo'lganda yoki obyektiv sabablarga ko'ra) protsessual muddatlarni uzaytirish yoki tiklash imkoniyatlari bo'lishi kerak [9].

Aytish lozimki, protsessual muddatlar bo'yicha Germaniya, Ispaniya va Polsha kabi davlatlarning tajribasi Venetsiya komissiyasining tamoyillariga mos keladi. Germaniya Federal Konstitutsiyaviy Sudida shikoyat berish muddati odatda bir oyni tashkil etadi. Bu muddat shikoyatchi huquqlari buzilganini bilgan kundan boshlanadi. Ushbu qat'iy muddat sud tizimining tezkor ishlashini ta'minlaydi [10]. Ispaniyada esa konstitutsiyaviy shikoyat muddati uch oyni tashkil etadi. Ushbu muddat huquqlari buzilgan deb hisoblangan kundan e'tiboran boshlanadi [11]. Polshada protsessual muddat uch oy bo'lib, tribunal shikoyatlarni mazkur muddat ichida qabul qiladi. Muddatning buzilishi shikoyatning avtomatik rad etilishiga olib keladi [12].

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonunchiligida shikoyatning ko'rib chiqilishi bo'yicha bir qancha kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, protsessual muddatlar masalasi aniq belgilanmaganligidir. Ya'ni shikoyat barcha sud bosqichlarini bosib o'tgach, Konstitutsiyaviy sudga bir yildan kechiktirmay taqdim etilishi kerak. Bu esa ortiqcha mujmallikka olib kelishi mumkin. Sababi barcha sud instansiyalarida ishning ko'rib chiqilishi turiga qarab vaqt oladi va bu esa protsessual muddatlarning turli xil talqin etilishiga sabab bo'ladi va sud tizimida ortiqcha murakkabliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud.

**Taklif.** Shu sababdan yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni taklif etamiz:

**1. Shikoyat qilish uchun bir oy yoki uch oy muddat belgilanishi.** Amaliyotda aniq muddatlarning mavjudligi taraflarning o'z huquqlaridan o'z vaqtida foydalanishlariga imkon yaratadi va sud ishlari cho'zilib ketishining oldini oladi.

**2. Maxsus sharoitlarda protsessual muddatlarni tiklash imkoniyati yaratilishi.** Agar taraflar uzrli sabablarga ko'ra belgilangan muddatni o'tkazib yuborsalar, ularga sud tomonidan qayta murojaat qilish imkoniyati berilishi lozim, bu esa adolat tamoyilini ta'minlaydi.

**3. Muddatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali sud jarayonining aniqligini ta'minlash.** Belgilangan protsessual muddatlarning huquqiy jihatdan aniq va tushunarli bo'lishi taraflarning protsessual huquqlarini kafolatlaydi hamda sud muhokamalarining tartibli va samarali kechishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Saidov, A. (2019). Inson huquqlarini himoya qilishda konstitutsiyaviy shikoyat institutining o'rnini. *Huquq va burch jurnali*, 3(2), 22-30. URL: <https://www.uzbekistan.org.ua/>
2. Bekov, I. (2020). Konstitutsiyaviy shikoyat instituti: nazariya va amaliyot. *Yurisprudensiya jurnali*, 2(1), 33-42 URL: <https://tsul.uz/>
3. Grimm, D. (2020). The Role of Fundamental Rights After Sixty-Five Years of Constitutional Jurisprudence in Germany. *International Journal of Constitutional Law*, 13(1), 9–29. URL: <https://doi.org/10.1093/icon/mov005>
4. Jabloner, C. (1998). Kelsen and His Circle: The Viennese Years. *European Journal of International Law*, 9(2), 368–374. URL: <https://academic.oup.com/ejil/article/9/2/368/446316>
5. Feld, L. P., & Wieland, V. (2021). The German Federal Constitutional Court Ruling and the European Central Bank's Strategy. *Journal of Financial Regulation*, 7(2), 217–253. URL: <https://doi.org/10.1093/jfr/fjab006>
6. Visser, M. D. (2015). *Constitutional Review in Europe: A Comparative Analysis*. Bloomsbury Publishing. URL: <https://www.bloomsbury.com/uk/constitutional-review-in-europe-9781782252450/>
7. Grimm, D. (2020). The Role of Fundamental Rights After Sixty-Five Years of Constitutional Jurisprudence in Germany. *International Journal of Constitutional Law*, 13(1), 9–29. URL: <https://doi.org/10.1093/icon/mov005>
8. Jabloner, C. (1998). Kelsen and His Circle: The Viennese Years. *European Journal of International Law*, 9(2), 368–374.
9. Venice Commission. (2021). \*Checklist for Constitutional Justice\*. Council of Europe. URL: <https://www.venice.coe.int>
10. Grimm, D. (2020). The Role of Fundamental Rights After Sixty-Five Years of Constitutional Jurisprudence in Germany. *International Journal of Constitutional Law*, 13(1), 9–29. URL: <https://doi.org/10.1093/icon/mov005>
11. Sajó, A., & Uitz, R. (2017). *The Constitution of Freedom: An Introduction to Legal Constitutionalism*. Oxford University Press. URL: <https://doi.org/10.1093/oso/9780198732174.001.0001>
12. Visser, M. D. (2015). *Constitutional Review in Europe: A Comparative Analysis*. Bloomsbury Publishing. URL: <https://www.bloomsbury.com/uk/constitutional-review-in-europe-9781782252450/>